O'zbekiston o'zining boy tarixi, ko'xna obidalari, qadimiy va tarixiy osori atiqalari va ajoyib tabiati nafaqat xorijliklarni balki yurtdoshlarimizni ham doimo o'ziga maftun etib kelgan. Shunday ekan, zaminimiz ulkan turistik imkoniyatlarga boy bo'lgan turizm xizmatlarini amalga oshiruvchi yuqori salohiyatga ega bo'lgan dunyo mamlakatlaridan biri hisoblanadi. Boisi shundaki, millat, makon va zamon tanlamaydigan mezonlarga javob beradigan nafaqat tarixiy obidalar, balki o'ziga xos bo'lgan tabiat manzaralari, qolaversa, zamonaviy ko'rinishlari bilan ham diqqatga sazovor madaniy va xushmanzara obyektlar yurtimizda nihoyatda ko'p. Ana shu jihatlarning o'zi mamlakatimizdagi sayyohlik-turizm yo'nalishida ulkan imkoniyat, katta iqtisodiy salohiyatning mavjudligini ko'rsatadigan diyor ekanligidan dalolat beradi.

Mamlakatimizda olib borilayotgan islohotlar natijalari tahlili shundan dalolat bermoqdaki, islohotlarning qisqa va o'rta muddatli maqsadlari izchil amalga oshirilib, belgilangan mezonlarga erishilmoqda. Shu ma'noda, mamlakatimizning ko'plab xalqaro reytinglardagi o'rni yanada mustahkamlanib jadal iqtisodiy yuksalish tendensiyasiga ega bo'lib jahon hamjamiyati tomonidan yuksak e'tiroflar bilan tilga olinayotganligini ko'rishimiz mumkin. Buning yorqin ifodasi sifatida, Ko'hna va boqiy Buxoro shahri 2020-yilda "Islom madaniyati poytaxti" [26], Qo'qon shahri esa 2022-yil – turkiy dunyo turizm poytaxti [22] bo'lganligi, 2023-yil 16-oktyabr kuni BMT Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) Bosh Assambleyasining yubiley 25-sessiyasi doirasida Samarqand shahriga "Jahon madaniy turizm poytaxti" [21] maqomini berish to'g'risida deklaratsiya qabul qilinganligini, Xiva shahri 2024-yilda "Islom dunyosining turizm poytaxti", [18] deb e'lon qilinganligini, Shahrisabz shahri esa, Iqtisodiy hamkorlik tashkilotining (IHT) 2024-yilgi turistik poytaxti [25] etib tanlanganligini misol keltirishimiz mumkin.

Bundan tashqari, 2023-yilda O‘zbekiston Amerikaning Travel Lemming onlayn sayohat qo‘llanmasida dunyodagi 50 ta eng yaxshi sayyohlik yo‘nalishi ro‘yxatidan joy oldi va 9-o‘rinni egalladi [23].

Jahon hamjamiyati tomonidan mamlakatimizning turistik salohiyatidan kelib chiqib uning imkoniyatlari shunday yuksak e’tiroflar bilan tilga olinayotgan bir vaqtda mamlakatimizda mahalliy va xorijiy turistlar uchun qanday qulayliklar yaratib berilayotganligi ko‘pchillikni qiziqtirishi tabiiy hol, hisoblanadi.

Shunday ekan, mamlakatimiz prezidentining tashabbusi bilan milliy iqtisodiyotimizda turizm sohasini devirsifikatsiya qilish, yangi ish o‘rinlarini yaratish, aholining daromadlarini oshirish orqali turmush darajasini yanada yahshilash, mamlakatimizda turizmning investitsiyaviy jozibadorligini oshirishni ta’minlash, strategik tarmoqlardan biri sifatida rivojlantirishning muhim yo‘nalishi va bu yo‘nalishni mamlakatimizning eng muhim “strategik soha”laridan biri sifatida e’tirof etib uning taraqqiyoti yo‘lida amaliy harakatlar olib borilmoqda.

Bu borada, Yangi O‘zbekistonning Taraqqiyot strategiyasida ham mamlakatimizda turizmni rivojlantirish va turizm xizmatlari hajmini ko‘paytirish bo‘yicha qo‘plab chora-tadbirlar belgilab olindi. Birgina misol, kelgusi 5 yillikka mo‘ljallangan mazkur Taraqqiyot strategiyasining “Milliy iqtisodiyotni jadal rivojlantirish va yuqori o‘sish sur’atlarini ta’minlash” deb nomlangan 3-ustuvor yo‘nalishida “Respublikaning eksport salohiyatini oshirish orqali 2026 yilda respublika eksport hajmlarini 30 milliard AQSH dollariga yetkazish”ni maqsad qilib olingan. Bu maqsadga erishish uchun esa, “turizm kabi boshqa xizmatlar eksportini 1,7 baravarga oshirish yoki 4,3 milliard AQSH dollariga yetkazish” [14] vazifasi belgilab olindi.

Bundan tashqari, “O‘zbekiston bo‘ylab sayohat qiling” dasturi doirasida respublikamizning turistik salohiyati yuqori bo‘lgan hududlar Toshkent, Jizzax, Samarqand, Navoiy, Buxoro va Xorazm kabi viloyatlarga, shuningdek Qoraqalpog‘iston Respublikasi va Toshkent shahriga sayyohlar oqimini yanada kuchaytirish hisobida mavjud resurslardan unumli foydalanib mahalliy sayyohlar sonini 12 million nafardan oshirish hamda respublikaga tashrif buyuradigan xorijiy turistlar sonini 9 million nafarga yetkazish bo‘yicha ham aniq maqsadlar belgilab olindi.

Darhaqiqat, 2024 -yilning 17-yanvar kuni mamlakatimiz Prezidenti Shavkat Mirziyoyev yuqorida ta’kidlagan va belgilab olingan ulkan maqsadlarni amalga oshirish bo‘yicha qat’iy harakatlarni o‘rganish va mamlakatimizga xorijiy turistlar oqimini oshirish hamda ichki turizmni faollashtirishga oid taqdimotlar bilan tanishish chog‘ida 2027-yilning 1-yanvargacha bo‘lgan muddatda turizm markazlaridagi tadbirkorlarning yer va mol-mulk solig‘ini 90 %gacha kamaytirish, 2026-yil 1-martgacha esa, zargarlik va oltin mahsulotlari uchun kerak bo‘ladigan asbob-uskunalar va texnologiyalarni bojxona bojidan ozod etish [20] bo‘yicha takliflar taqdim etildi.

Shu o‘rinda bir savol tug‘iladi. Xo‘sh, biz aslida kimni “turist”, deb aytamiz va ular qanday faoliyat turi bilan shug‘ullanishadi!? Mavjud adabiyotlar va boshqa manbalar tahlili shuni ko‘rsatmoqdaki, masalan, Vikipediya ochiq ensiklopediyasiga ko‘ra, “turist” – so‘zi fransuzcha “touriste” so‘zidan olingan bo‘lib – sayyoh, ya’ni turizm bilan shug‘ullanuvchi shaxs, turistik sayohat, yurish qatnashchisi, [27] degan ma’nolarni anglatadi.

O‘zbekiston Respublikasining 2019-yil 18-iyulda qabul qilingan “Turizm to‘g‘risida”gi Qonuni [1] va O‘zbekiston Respublikasi Sanitariya-epidemiologik osoyishtalik va jamoat salomatligi qo‘mitasining 2023-yil 16-martdagi 5-son qarori bilan tasdiqlangan “Joylashtirish vositalariga (xizmatlarga) qo‘yiladigan sanitariya-gigiyena talablari” (0045-23-son SanQvaN) [15]ga ko‘ra, “turist” – vaqtincha bo‘lish mamlakatidagi (joyidagi) manbalardan daromad olish bilan bog‘liq bo‘lgan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda vaqtincha bo‘lish mamlakatiga (joyiga) yigirma to‘rt soatdan ketma-ket o‘n ikki oygacha bo‘lgan davrga boruvchi yoki vaqtincha bo‘lish mamlakatida (joyida) kamida bir kecha tunab qoluvchi jismoniy shaxs [13]ni tushinishimiz mumkin.

Shunday ekan, “turizm” nima degani? Qomus.info onlayn ensiklopediyasiga ko‘ra, turizm (frans. tour – sayr, sayohat), sayyohlik – sayohat (safar) qilish; faol dam olish turlaridan biri. Turizm deganda, jismoniy shaxsning doimiy istiqomat joyidan sog‘lomlashtirish, ma’rifiy, kasbiy amaliy yoki boshqa maqsadlarda borilgan joyda (mamlakatda) haq to‘lanadigan faoliyat bilan shug‘ullanmagan holda uzog‘i bilan 1 yil muddatga jo‘nab ketishi (sayohat qilishi) tushuniladi [28].

Bundan ko‘rinib turibdiki, haqiqatdan ham bugungi kunda turizm jahon iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlaridan biriga aylanib ulgurdi. Bu borada O‘zbekistonda turizm industriyasini modernizatsiya qilish, sohani barqaror rivojlantirish uchun normativ-huquqiy bazani rivojlantirish va takomillashtirish, xorijlik mehmonlarga xalqaro standartlar asosida xizmat ko‘rsatishni tashkil etishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Mustaqillik yillarida xalqning tarixiy-madaniy merosini asrab-avaylash va yuksaltirish, milliy an’ana va urf-odatlarni, respublikaning diqqatga sazovor joylarini tiklash va obodonlashtirish bilan bir qatorda bu sohada sezilarli amaliy harakatlar amalga oshirilmoqda. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrda qabul qilingan 543-son qarori asosida 2022–2026-yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirishning maqsadli ko‘rsatkichlari tasdiqlandi (1-jadval).



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

1-jadval: 2022–2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini rivojlantirishning maqsadli ko'rsatkichlari dinamikasi [3]

| № | Ko'rsatkichlar nomi | Yillar | | 2026-yilda 2022-yilga nisbatan kutilayotgan o'zgarishi | |
|---|---|---|---|---|---|
| | | 2022 | 2026 | +;- hisobida | % hisobida |
| 1. | Ichki turistlar tashrifi soni (mln kishi) | 2,4 | 4,1 | 1,7 | 171 |
| 2. | Xorijiy sayyohlar soni (ming kishi) | 450 | 1 800 | 1350 | 400 |
| 3. | Xizmatlar eksporti (mln AQSH doll) | 121 | 300 | 179 | 248 |
| 4. | Joylashtirish vositalaridagi xonalar soni (ming) | 5,399 | 7,976 | 2,577 | 148 |
| 5. | Mehmonxonalar nomer fondining bandlik darajasi | 45 | 93 | 48 | 207 |
| 6. | Joylashtirish vositalaridagi o'rinlar soni (ming) | 12,147 | 17,512 | 5,365 | 144 |
| 7. | Mehmonxonalar soni (dona) | 178 | 258 | 80 | 145 |
| 8. | Oilaviy mehmon uylari soni (dona) | 264 | 345 | 81 | 131 |
| 9. | Xostellar soni (dona) | 55 | 76 | 21 | 138 |
| 10. | Internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini oshirib borish | 7 | 11 | 4 | 157 |

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlaridan ham ko'rinib turibdiki, Buxoro viloyatining turizm sohasini rivojlantirish bo'yicha olib borilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy-islohotlar natijasida ichki turistlar tashrifi sonini 2022-yildagi 2,4 mln kishidan 2026-yilda 71 foizga oshishi kutilib, bu ko'rsatkich 4,1 mln kishigacha yetkazish prognoz qilinmoqda. Xuddi, shuningdek, xorijiy sayyohlar sonini ham 2022-yilga nisbatan yana kamida 4 baravargacha oshirish kutilmoqda.

Shuni yana, alohida ta'kidlab o'tish kerakki, hududiy turistik salohiyatni oshirishda joylashtirish vositalari, mehmonxonalar, oilaviy mehmon uylari, xostellar va ulardagi xona hamda o'rinlarning soni ham muhim o'rin tutadi. Shunday ekan, 2026-yilga kelib mazkur hududdagi mehmonxonalar sonini yana 80 taga ko'paytirib, oilaviy mehmon uylari va xostellar sonini ham mos ravishda qo'shimchasiga yana 80 va 81 tagacha oshirilishi qolaversa ulardagi o'rinlar sonini ham 5,4 mingtagacha oshirib birvarakayiga 17,5 mingtadan ortiqroq turist va sayyohni qabul qilib olish imkoniyatini yaratish ustida izlanishlar olib borilmoqda.

Butun dunyo mamlakatlari turizm industriyasi rivojlanishiga ta'sir ko'rsatadigan asosiy omillaridan yana biri bu sohaga zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini nechog'lik joriy etilganligiga ham bog'liq bo'ladi. Shunday ekan, tezkor axborotlar almashinuvini yo'lga qo'yishda va ularni tarqatishda, turizm mediasi orqali reklama va marketing xizmatlarini keng targ'ib etishda internet tarmog'ining ahamiyati katta hisoblanadi. Ayniqsa, mazkur xududda ham internet (4G va 5G texnologiyalarini hisobga olgan holda) qamrovi darajasini 7 dan 11 ga oshirib borish ko'zda tutilgan. Bundan ko'zlangan maqsad shuki, ichki turistlar va xorijiy sayyohlar oqimini oshirilishi natijasida ularga ko'rsatiladigan turizm xizmatlari eksportini ham, 2026 yilda 300 mln AQSH dollarigacha yetkazishni rejalashtirish mumkinligidan dalolat beradi.

Agar tahllilarga e'tibor qaratadigan bo'lsak, mamlakatimiz uchun 2023-yil oxirgi 4 yillikga qaraganda ancha sermahsul yil bo'ldi, deyish mumkin. Masalan, buni 2022-yil bilan solishtirgan holda ham ko'rish mumkin. Tashrif buyurgan sayyohlar soni 2022-yil hisobida qariyib 5,3 mln nafarni tashkil etgan bo'lsa, 2023-yil yakuni bo'yicha O'zbekistonga tashrif buyurgan sayyohlar soni 6,6 mln kishini tashkil etib, oldingi yilga nisbatan 27 foizga o'sgan (1-rasm). 2024 - yil uchun esa, 11,250 mln. sayyohlarning tashrifi amalga oshirilishi prognoz qilinmoqda [2].

Sayyohlarni mamlakatimizda bo'lish vaqtini ham oshirish bilan bog'liq tegishli chora-tadbirlarni amalga oshirish mamlakatimizning iqtisodiy salohiyatini yanada yuksaltirishga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatadi. Masalan, tahlillarga ko'ra, " ... sayyohlarning O'zbekistonda bir kun ko'proq qolishi yillik turizm eksportini 300 million dollarga oshirar ekan. Xorazmda turistlarning qolish muddati – o'rtacha 2 kun va sarflaydigan mablag'i – 220 dollar ekan. Xorijiy turistlar Buxoro, Samarqandga qaraganda Xorazmda 2,5 baravar kam, lekin Xorazmda sayyohlarni 3-4 kun olib qolish va 400-500 dollar sarf qilishlari uchun barcha imkoniyatlar bor [24]. O'zbekistonga tashrif buyurgan bir sayyohning o'rtacha qilgan xarajati 2023-yilda 323 dollarga (Sayyohlarning o'rtacha qilgan xarajati umumiy safarlar eksportini mamlakatga tashrif buyurgan turistlar soniga nisbati orqali hisoblangan) to'g'ri kelib, oldingi yilga nisbatan 5 foizga oshdi[29]. Shu boisdan ham bo'lsa kerakki, 2023-yilda jami xizmatlar eksportida safar xizmatlari ulushi 41 foizga yetib, 2,1 mlrd dollarni tashkil qilgan [29]. Ushbu tahlillardan shuni anglab olish mumkinki, 2023-yil mamlakatimiz uchun "sermahsul yil" bo'ldi deb aytishimiz mumkin.




1-rasm: O‘zbekiston Respublikasiga turistik maqsadlarda kelgan chet el fuqarolari [2], ming kishi

Darhaqiqat, “Turizm sohasi – orzular ko‘prigi” yoki “Turizmni madaniyatlar rishtasi” deb ham bejizga e’tirof etishmaydi. Ichki turizm va xorijiy sayyohlik xizmatlaridan foydalanish uchun foydalanuvchilarga qulay bo‘lgan vaqt imkoniyatini yaratib berishni ham tashkil etish dolzarb bo‘lgan masalalardan biri hisoblanadi. Shunday ekan mamlakatimiz aholisini ham ushbu xizmat turlaridan foydalanishlari uchun ayniqsa, ularga yetarli vaqt sharoitlarini ham ta’minlanib berilmoqda. Boisi shundaki, ma’naviy ozuqa olgan kadrlarning ish faoliyatida samaradorlik yuqori bo‘ladi va bu o‘z navbatida inson doimo yaxshi yashashga haqli ekanligiga da’vat etadi.

Kundalik hayotimiz davomida har qaysi bir inson borki u dam olish huquqiga ega hisoblanadi. Bu holatning huquqiy asosi esa, O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining 45-moddasida ham “Har kim dam olish huquqiga ega” [14], ekanligi belgilab qo‘yilgan.

Shuningdek, O‘zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksining 207-moddasida “Xodimlarga har haftada dam olish kunlari beriladi” [17], deb yozib qo‘yilgan bo‘lsa, 208-moddasiga binoan yana qo‘shimcha ravishda “1-yanvar – Yangi yil, 8-mart – Xotin-qizlar kuni, 21-mart – Navro‘z bayrami, 9-may – Xotira va qadrlash kuni, 1-sentyabr – Mustaqillik kuni, 1 oktyabr – O‘qituvchi va murabbiylar kuni, 8 dekabr – O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi kuni, Ro‘za hayit (Iyd al-Fitr) diniy bayramining birinchi kuni va Qurbon hayit (Iyd al-Adha) diniy bayramining birinchi kuni” [27] sifatida ishlanmaydigan bayram kunlari ekanligi belgilab qo‘yilgan. Bundan tashqari, xodimlarning uzluksiz dam olish kunlarini mazmunli tashkil etish, ichki turizmni rivojlantirishga hissa qo‘shish maqsadida yuqorida nomlari keltirilgan rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish bo‘yicha ham tashkiliy ishlar amalga oshirib kelinmoqda. Birgina misol, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 22-dekabrda qabul qilingan “2024-yilda rasmiy sanalarni nishonlash davrida qo‘shimcha ishlanmaydigan kunlarni belgilash va dam olish kunlarini ko‘chirish to‘g‘risida”gi PF-213-son[19]li farmoniga binoan, barcha xodimlar uchun (ish haftasining turidan qat’i nazar) 22-mart – juma, 11-aprel – payshanba, 18-iyun – seshanba, 3-sentyabr – seshanba va 31-dekabr – seshanba shuningdek, 6 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun esa, 2-yanvar – seshanba, 23-mart – shanba, 12-aprel – juma, 31 avgust – shanba va 30 dekabr – dushanba hamda 5 kunlik ish haftasida ishlaydigan xodimlar uchun 6-yanvar – shanba kunidan 2-yanvar – seshanba kuniga, 13-aprel – shanba kunidan 12-aprel – juma kuniga va 14-dekabr – shanba kunidan 30-dekabr – dushanba kuniga dam olish kunlarini ko‘chirish tartibi belgilab qo‘yildi.

Demak, mamlakatimizda yuqorida sanab o‘tilgan kunlari kamida ichki turizmni rivojlantirish uchun qulay imkoniyat hisoblanadi. Chunki, jamoaviy dam olish mehnat jamoalari uchun nafaqat birgalikda maroqli vaqt o‘tkazish, balki xodimlarni rag‘batlantirish va birlashtirishning samarali vositasidir. Bunday tadbirlar tufayli ish samaradorligi oshadi, tashkilot muhiti yaxshilanadi va xodimlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlar yanada mustahkamlanadi.

Yuqoridagi tahliliy mulohazalardan shunday xulosa qilish mumkinki, mamlakatimizda nafaqat oddiy aholi bo‘g‘inlari uchun balki mehnat faoliyatini olib borayotgan barcha mehnatkash xodim va mutaxassislarimizni mehnat ish haftasidan so‘ng yoki rasmiy bayram sanalarini munosib ravishda o‘tkazish hamda dam olishlarini ta’minlash maqsadida aqliy va jismoniy resurslarni to‘ldirib maroqli xordiq olishlari uchun juda yaxshi qulay imkoniyatlar yaratib berilgan. Demak, turizm sohasini yanada rivojlantirish kerak. Boisi shundaki, “... bugungi kunda jahon turizm bozori hajmi qariyb 9 trillion dollarni tashkil etmoqda. Dunyoda ish bilan band aholining har o‘ninchisi ushbu sohada faoliyat yuritmoqda [30]. Biroq, “... O‘zbekiston yalpi ichki mahsulotidagi turizm sohasi ulushi bor-yo‘g‘i 2,3 foiz. Xorijiy davlatlarda ushbu ko‘rsatkich 10 foizgacha yetadi” [31].



TARAQQIYOT ПРОГРЕСС PROGRESS

Shunday ekan, turizm sohasi yangidan-yangi bo‘sh ish o‘rinlari yaratish uchun qulay imkoniyatlardan biri ham hisoblanadi. Amalga oshirilgan sa’y-harakatlar tufayli birgina, “ ... 2022-yilda turizm sohasida jami qiymati 22,1 trln so‘mlik 735 ta loyihalar ishga tushirilib, tarmoqda qo‘shimcha 23 mingga yaqin yangi ish o‘rni yaratildi [32].

Bundan shuni anglash mumkinki, mamlakatimizda mazkur yo‘nalishda yechimini kutib turgan hali ko‘plab amaliy ishlarning bajarilishi lozim ekanligi yaqqol ko‘rinib turibdi. Jumladan, turizmni yanada rivojlantirishga to‘sqinlik qilayotgan quyidagi qator muammolarni sanab o‘tishimiz mumkin:

*Birinchidan,* turizm xizmatlarini ko‘rsatishda malakali gid xizmatlarining yetishmasligi;

*Ikkinchidan,* mexmonxonalarda servis xizmatlarining yetarli darajada yaxshi rivojlanmaganligi (masalan hududlardagi mehmonxonalar va xostellarda elektr energiyasi ta’minotidagi uzilishlar, qish-kuz mavsumida isitish va sovutish tizimi bilan bog‘liq muammolar, internet va mobil aloqa xizmatlari bilan bog‘liq muammolar, sayyohlar uchun ularning avtomobillariga malakali texnik xizmatlarini ko‘rsatishdagi oqsoqlanishlar, bank xizmatlarining to‘laqonli emasligi (uzkard, xumo va viza karta tizimlarida o‘zaro integratsiyalashuv mavjud emasligi));

*Uchunchidan,* sifatli va halqaro andozalarga mos reklama va marketing xizmatlarining talab darajasida emasligi;

*To‘rtinchidan,* sayyohlik turizmiga ihtisoslashtirilgan hududlarda rejali transport xizmatlarining yo‘lga qo‘yilmaganligi;

*Beshinchidan,* ihtisoslashtirilgan turizm hududlarida mahalliy aholi qatlamlarining milliy an’analarimizni o‘zida mujassamlashtirgan har xil marosimlarni targ‘ib etishga xizmat qiluvchi bilim va tajribalarining yetarlicha shakllanmaganligi;

*Oltinchidan,* turizm sohasida navigatsiya tizimining axborot belgilari yaxshi rivojlanmaganligi;

*Yettinchidan,* avia va temiryo‘l transport vositalaridan foydalanish bilan bog‘liq bo‘lgan muammolarning mavjudligi;

*Sakkizinchidan,* turizm hududlarida savdo-sotiq xizmatlari tizimli ravishda yo‘lga qo‘yilmaganligi;

*To‘qqizinchidan,* turoperator, mehmonxona, transport korxonalari, oliygohlarning vakillari o‘rtasidagi olib borilayotgan ishlar tizimli ravishda uyg‘unlashmaganligi kabi muammolar mavjuddir.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Yuqoridagi tahliliy fikr va mulohazalarimizdan kelib chiqib, respublikamizning turizm salohiyatini tobora jadal rivojlantirish hamda mahalliy va xorijiy turistlar sonini yanada oshirish yo‘lida quyidagi takliflarni amalga oshirish maqsadga muvofiq deb hisoblaymiz:

- Mamlakatimizni targ‘ib qiluvchi maxsus mediakontentlar nashr qilish;
- Respublikamizning turistik salohiyatiga bag‘ishlangan o‘zbek va xorijiy tillardagi sifatli videoroliklarni doimiy ravishda tayyorlab borish va targ‘ib etish;
- qishloq joylardagi barcha turdagi yo‘llarni elektr energiya infratuzilmalari bilan muttanosib ravishda jahon andozalariga moslashtirish;
- mavsumiy sport turizmi bilan bog‘liq servis xizmatlarini rivojlantirish, ekologik turizm, qo‘riqxona, tabiat maskanlari va tabiat yodgorliklari imkoniyatidan foydalanish;
- “O‘zbekiston tashrif qog‘ozi”ni ishlab chiqish;
- “O‘zbekiston turizm brendi” haqidagi ma’lumotlarni ijtimoiy tarmoqlarda hamda mahalliy va halqaro ommaviy ahborot vositalarida doimiy ravishda targ‘ib etib borish;
- Mamlakatimizdagi turizm sohasida ishlab chiqilgan tartib- qoidalarni xalqaro me’yor va standartlarga implementatsiya qilish.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, yuqorida sanab o‘tilgan muammolarning yechimiga bag‘ishlangan amaliy xarkatlarni olib borish va bunda soha yaxshi rivojlangan davlatlarning halqaro tajribalarini mamlakatimiz sayyohlik yo‘nalishida targ‘ib qilish va keng joriy etish mamlakatimizda sayyohlik sohasining taraqqiy etishiga olib keladi hamda valyuta tushumlarini oshirish imkonini beradi.

**Foydalanilgan adabityotlar ro'yxati:**

1. O'zbekiston Respublikasining 18.07.2019-yilda qabul qilingan "Turizm to'g'risida"gi Qonuni, O'RQ-549-son. https://lex.uz/docs/4428097
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 5-yanvarda qabul qilingan "O'zbekiston Respublikasida turizmni jadal rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5611-son Farmoni bilan tasdiqlangan "2019-2025-yillarda O'zbekiston Respublikasida turizm sohasini rivojlantirish KONSEPSIYASI"
3. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 28-sentyabrda qabul qilingan "2022 – 2026 yillarda Buxoro viloyatida turizm sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi 543-son qarori. https://lex.uz/ru/docs/6212874#6217692
4. Азар В.И. Экономика и организация международного туризма. М.: Экономика, 1984.
5. Karimov I.A. "Bunyodkorlik yo'lida". −Toshkent. O'zbekiston 1996-yil. −285 b.
6. Pardayev M.Q., Ochilov I.S. Xizmat ko'rsatish sohasi korxonalarida samaradorlikni oshirish yo'llari. –Monografiya. –Toshkent. −2011.
7. Морозов М.А., Морозова Н.С., Карпова Г.А., Хорева Л.В. / Экономика туризма: учебник / – М.: Федеральное агентство по туризму, 2014. − 320 с.
8. Abiyev J.N. Milliy iqtisodiyotda turizm tarmog'ini rivojlantirishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) ilmiy darajasini olish uchun tayyorlangan dissertatsiya avtoreferati. Samarqand, 2019 y. – 11-14 b.
9. Amonboyev M., Xalilov S.Sh.. Milliy turizm tarmog'ini rivojlantirishda kiruvchi turistik oqimning o'zgarish tendensiyalari. / "Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 6, noyabr-dekabr, 6/2021 (№ 00056) yil, -B. 402-413. http://iqtisodiyot.tsue.uz
10. Usmanova Z.I. Turistik-rekratsion korxonalardagi raqobatbardoshlikni ta'minlovchi tizimli ko'rsatkichlar. /"Экономика и социум" Электронное научно-практическое периодическое международное издание. №6(109)-2 2023. -С. 1053-1057.
11. Fayziyev O.R., Xalikov S.A. O'zbekistonning sayyohlik salohiyati va uni rivojlantirish imkoniyatlari / Xorazm Ma'mun akademiyasi axborotnomasi. – Xorazm Ma'mun akademiyasi, 2024-y. −№1/2 – B. 117-119.
12. O'zbekiston Respublikasi Ekologiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va iqlim o'zgarishi vazirligi huzuridagi Turizm qo'mitasi ma'lumotlari (https://uzbektourism.uz/research/statistics)
13. https://lex.uz/docs/4428097
14. https://lex.uz/docs/5841063
15. https://lex.uz/docs/6423204
16. https://lex.uz/docs/6445145
17. https://lex.uz/docs/6257288
18. https://lex.uz/docs/6531531
19. https://lex.uz/docs/6704048
20. https://president.uz/uz/lists/view/6974
21. https://president.uz/uz/lists/view/6765
22. https://uza.uz/uz/posts/samarqand-2023-yilda-butunzhahon-turizm-poytaxti_423962
23. https://uza.uz/uz/posts/ozbekistonga-49-million-nafar-xorizhlik-sayyoh-kelgan_554168
24. https://uz24.uz/uz/articles/tourism-1-9
25. https://qalampir.uz/news/sha%D2%B3risabz-sha%D2%B3ri-2024-yilgi-i%D2%B3t-turizm-poytakhti-etib-tanlandi-74074
26. https://qalampir.uz/news/bukhoro-islom-madaniyati-poytakhti-deb-e-lon-k-ilindi-8525
27. Vikipediya ochiq ensiklopediyasi - https://uz.wiktionary.org/wiki/turist#Sinonimlari
28. Qomus.info онлайн энциклопедияси - https://qomus.info/
29. https://www.xabar.uz/mahalliy/bir-sayyohning-ozbekistonga-ortacha-qancha-mabl
30. https://gujum.uz/turizm/turizm-va-sportni-rivojlantirish-masalalari-muhokama-qilindi/
31. https://kun.uz/79188325
32. https://m.kun.uz/news/2023/10/16/ozbekistonda-turizm-sohasi-2017-2023-yillarda-islohotlar-qanday-natijalar-ga-olib-keldi

TARAQQIYOT PROGRESS ПРОГРЕСС

Jurnal sayti: https://yashil-iqtisodiyot-taraqqiyot.uz

Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT
Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Xondamir Ismoilov

**Sahifalovchi va dizayner:** Iskandar Islomov

**2024. № 2**

© Materiallar ko‘chirib bosilganda ““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali manba sifatida ko‘rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma’sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga
maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.
Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.
El.Pochta: sq143235@gmail.com
Bot: @iqtisodiyot_77
Tel.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo‘lishingiz mumkin. Obuna bo‘lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to‘lov haqidagi ma’lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo‘natishingizni so‘raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo‘natamiz.

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali 03.11.2022-yildan
O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reyestr raqami tartibi bo‘yicha ro‘yxatdan o‘tkazilgan.
**Litsenziya raqami:** №046523. PNFL: 30407832680027

**Manzilimiz:** Toshkent shahar, Mirzo Ulug‘bek tumani
Kumushkon ko‘chasi, 26-uy.

Jurnalning ilmiyligi:

““Yashil” iqtisodiyot va taraqqiyot” jurnali

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasi rayosatining 2023-yil 1-apreldagi 336/3-sonli qarori bilan ro‘yxatdan o‘tkazilgan.